

**KADRLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

Bazarov Yoqubjon Xasanboy o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tyutori

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy mutaxassis kadrlarda tayanch ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy qadriyatlar va mafkuraviy tarbiya kadrlarni tayyorlashning uzviy tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirish hamda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida ma'naviy tarbiya nafaqat ta'lim muassasalari, balki oila, mahalla va butun jamiyatning uzviy hamkorligini talab etuvchi kompleks jarayon ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy kompetensiya, kadrlar tayyorlash, uzluksiz ma'naviy tarbiya, mafkuraviy immunitet, milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mafkuraviy tarbiya, Yangi O'zbekiston, targ'ibot.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются основные факторы развития базовых духовно-нравственных компетенций у современных специалистов в условиях Нового Узбекистана. Исследование основано на концепции непрерывного духовного воспитания, в рамках которой духовно-просветительская работа, национальные ценности и идеологическое воспитание рассматриваются как органичные составляющие подготовки кадров. Обоснована необходимость формирования идеологического иммунитета у молодежи и совершенствования организации духовно-просветительских мероприятий в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: духовно-нравственная компетенция, подготовка кадров, непрерывное духовное воспитание, идеологический иммунитет, национальные ценности, духовно-просветительская работа, идеологическое воспитание, Новый Узбекистан, пропаганда.

Annotation. This article provides a scientific-theoretical analysis of the principal factors in developing core spiritual-moral competencies among modern specialists in the context of New Uzbekistan. The study is based on the concept of continuous spiritual education, within which spiritual-enlightenment work, national values, and ideological education are considered organic components of personnel training. The article substantiates the need to form ideological immunity among youth and to improve the organization of spiritual-enlightenment activities in higher education institutions.

Keywords: spiritual-moral competence, personnel training, continuous spiritual education, ideological immunity, national values, spiritual-enlightenment work, ideological education, New Uzbekistan, propaganda.

Kirish

Keyingi yillarda mamlakatimiz taraqqiyotida butunlay yangi bosqich boshlandi. “Yangi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston”, “Milliy yuksalish”, “Yangi ma’naviy makon” kabi iboralar kun tartibidan mustahkam o‘rin oldi. Yangi O‘zbekistonni shakllantirishda ma’naviy va ma’rifiy sohadagi islohotlarga yanada ko‘proq ahamiyat qaratish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qayerda ma’naviyatga va ta’lim-tarbiyaga e’tibor kuchaytirilsa, o‘sha yerda taraqqiyot tezlashadi va fuqarolar farovonlikda yashaydi (Mirziyoyev, 2017:3).

Ma’naviyat va ma’rifat masalasining dolzarbligi zamonaviy jamiyatda inson kapitalining strategik resursga aylanayotgani bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy taraqqiyot nazariyalarida ta’lim va ma’naviy yetuklik iqtisodiy o‘rish va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida e’tirof etiladi (Nussbaum, 2011:18). Shu nuqtayi nazardan yosh avlodni mustaqil fikrga ega, o‘z iste’dod va imkoniyatlarini namoyon qila oladigan barkamol shaxslar sifatida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi (Karimova, 2020:45).

Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy mutaxassis kadrlarda tayanch ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usullarini asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ma'naviy tarbiyani alohida pedagogik hodisa sifatida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimining uzviy tarkibiy qismi va kompetensiyaviy yondashuv doirasidagi kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqishga qaratilganligida namoyon bo'ladi (Sultonova, 2019:112).

Nazariy asoslar va tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy asosini uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi tashkil etadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, tayanch ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar shaxsning ma'lum bir hayotiy vaziyatlarda axloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qila olish qobiliyatini ifodalaydi va ular barcha darajadagi xodimlarda shakllantirilishi lozim (Sultonova, 2019:118). Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim nazariyasida bilim, ko'nikma va qadriyatlarni yaxlit birlikda rivojlantirishga asoslangan metodologik yo'nalish sifatida keng e'tirof etilgan (Weinert, 2001:45).

Tadqiqotda ma'naviy tarbiyaning uch asosiy omili — ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy qadriyatlar va mafkuraviy tarbiya — tizimli-strukturaviy tahlil usuli asosida o'rganilgan. Milliy qadriyatlar va o'zlikni anglash muammosini tahlil qilishda milliy o'ziga xoslik va madaniy xotira nazariyalariga tayanilgan (Smith, 1991:71). Globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar munosabatini o'rganishda madaniy globallashuv konsepsiyasidan foydalanilgan (Robertson, 1992:97). Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul, falsafiy refleksiya va oliy ta'lim amaliyotini kuzatish natijalari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

1. Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarning dolzarbligi

Globallashuv davrida kadrlarni sog'lom tafakkur sohibi qilib tarbiyalash, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishni o'rgatish, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri idrok qila olishga yo'naltirish dolzarb

vazifalardan hisoblanadi (Castells, 2010:xviii). Bundan tashqari g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, diniy ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, odam savdosi, “ommaviy madaniyat” va boshqa tahdidlarga qarshi kurasha olish malakasini shakllantirish kadrlar tayyorlashning ajralmas qismiga aylanmoqda (Roy, 2004:41).

Bugungi kunda turli buzg'unchi g'oyalarning milliy qadriyatlarimizga tahdidi, transmilliy va kiberjinoyatchilik, global pandemiya xavfi borgan sari kuchayib bormoqda. Mana shunday sharoitda jamiyatimizda ma'naviy tarbiyaning roli keskin ortmoqda. Ma'naviy jihatdan sergak bo'lib yashash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish davr talabiga aylanmoqda (Karimova, 2020:52). Zero, bo'lajak mutaxassis kadrlarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan samarali foydalanish kutilgan natijalarga olib kelishi muqarrardir.

2. Ma'naviy tarbiyaning mohiyati va tuzilishi

Ma'naviy tarbiya — yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat va millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy hamda ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushunchadir. Ma'naviy tarbiya masalasi shu qadar nozik masalaki, bunda hushyorlik va sezgirlikni, qat'iyatlilik va daxldorlikni chetga surib bo'lmaydi, aks holda jamiyat milliyligini yo'qotishi va ma'naviy sohada tanazzulga yuz tutishi mumkin (Sultonova, 2019:120).

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiyaga, yoshlarning bilim olish va kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir; aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi (Mirziyoyev, 2020:8). Shuni unutmaslik lozimki, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga faqatgina ta'lim muassasalari mas'ul emas; ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalashda ta'lim muassasalari bilan bir qatorda oila va mahallaning ham o'rni beqiyosdir (Karimova, 2020:58).

Yoshlarning ma'naviy jihatdan yuksalib borishiga qaratilgan tarbiya uzluksiz bo'lishi kerak va bunday mas'uliyatli jarayon tanaffusiz davom etishi lozim. Chunki O'zbekiston — yoshlar mamlakati bo'lib, aholining salmoqli qismini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Mana shu yoshlarni ma'naviy yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazib borilishi jamiyatdagi yangilanishlarning yanada samarali bo'lishiga zamin yaratadi (Sultonova, 2019:125).

3. Birinchi omil: ma'naviy-ma'rifiy ishlar

Ma'naviy tarbiyani yuksaltiruvchi omillar orasida birinchi navbatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ko'rsatish mumkin. O'tkaziladigan tadbirlarning asosiy maqsadi yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini oshirishga, jamiyat a'zolarining mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga, shaxsning ma'naviy rivoji, axloqiy qiyofasi va estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim (Nussbaum, 2011:26). Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotning samarali va ta'sirchan bo'lishi uchun bir qator uslubiy talablarga rioya etish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, targ'ibot materiallari va mavzulari tezkor yangilab borilishi (chunki bir xillik yoshlarning zerikishiga olib keladi), tashkil qilinadigan targ'ibot turi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'tkazilishi, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalangan holda amalga oshirilishi hamda hayotiy, tushunarli va aniq misollar asosida tayyorlanishi zarur (Sultonova, 2019:130). Zamonaviy pedagogik yondashuvlar targ'ibotning bir tomonlama axborot uzatish emas, balki interaktiv va dialogik muloqotga asoslanishini talab etadi (Weinert, 2001:52).

Bundan tashqari yoshlar ma'naviy olamida milliy qadriyatlar bilan birgalikda umumbashariy qadriyatlarga ham e'tibor qaratilishi, o'zligini anglash va ajdodlari bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantira oladigan ta'sirchan g'oyalarni singdira olish muhimdir (Smith, 1991:78). Shuningdek, tadbirlarni o'tkazadigan o'qituvchilar va targ'ibotchilar alohida tayyorgarlik ko'rishlari, bu yo'nalishda trenerlar tayyorlanishi va ular orqali qamrov doirasi kengaytirilib borilishi kerak. Pirovardida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarni mustaqil fikrlovchi, hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim (Karimova, 2020:63).

4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar

Afsuski, hozirgi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda muayyan muammolar ham mavjud. Misol uchun, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlarning noqulay vaqti, talabalar qiziqishining hisobga olinmasligi yoki tadbir haqidagi axborotning jozibador emasligi ularning ma'naviy tadbirlarga nisbatan munosabatini salbiy tomonga yo'naltirishga sabab bo'lmoqda (Sultonova, 2019:134). Ko'pincha dars soati paytida (ma'ruza yoki seminar davomida) talabalar qo'qqisdan tadbirlarga chaqiriladi va tadbirning mavzusi faqat tadbir o'tkaziladigan joyga kirgandan keyin ma'lum bo'ladi.

Bunday tarzda tashkil etilgan tadbirlar yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, ularda "ma'naviy-ma'rifiy tadbir" iborasiga nisbatan salbiy munosabat va undan qochish tendensiyasini yuzaga keltiradi. Bu holat targ'ibotning shaklan emas, balki mazmunan tashkil etilishi, talabalarning ehtiyoji va qiziqishlarini hisobga oluvchi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni talab etishini ko'rsatadi (Nussbaum, 2011:34). Demak, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun ularni rejalashtirish va tashkil etishga sifat jihatidan yangicha yondashuv zarur.

5. Ikkinchi omil: milliy qadriyatlar

Ma'naviy va jismoniy barkamol insonni tarbiyalashdagi yana bir muhim omil — milliy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlar millatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy merosi, milliy madaniyati, tili, dini, milliy ongi hamda tarixi bilan bog'liq qadriyatlardir (Smith, 1991:84). Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdira olinsa, millat tarixi, o'tmishi va kelajagini bir-biriga bog'lashga xizmat qilingan bo'ladi.

Urf-odat va an'analar, marosimlar, milliy madaniyat hamda milliy ruh bilan tarbiyalangan yoshlarda vatanparvarlik ruhi kuchli bo'ladi. Hech qaysi jamiyat o'z a'zolari ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay turib, kelajagiga mustahkam poydevor qo'yolmaydi (Robertson, 1992:103). Shu bois Yangi O'zbekistonda ham ana shu poydevorni qo'yish uchun ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va meros bo'lib kelayotgan boy ma'naviy merosdan oqilona foydalanish

lozim. Ayni paytda milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga qarama-qarshi qo'ymasdan, ularni o'zaro uyg'unlikda tarbiyalash zamonaviy globallashtirish sharoitining muhim talabi hisoblanadi (Robertson, 1992:110).

6. Uchinchi omil: mafkuraviy tarbiya

Ma'naviy tarbiyaning navbatdagi muhim omili sifatida mafkuraviy tarbiyani ko'rsatish mumkin. Mafkuraviy tarbiya — inson, ijtimoiy guruh, millat va jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Mafkuraviy tarbiyaning maqsadi jamiyat a'zolarining tarbiyaviylik darajasini oshirishdan iborat (Roy, 2004:48).

Yangi davrga qadam qo'yayotgan Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan yangicha dunyoqarash Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga, milliy qadriyat va an'analarni qadrlashga, ijobiy fazilatlarni o'zida mujassam qilib illatlardan qochishga hamda fuqarolik mas'uliyatini amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim (Karimova, 2020:68). Mafkuraviy tarbiya, ayni paytda, yoshlarni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya qiluvchi intellektual va axloqiy to'siq — mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi (Roy, 2004:53).

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, kadrlarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uzluksiz ma'naviy tarbiyaning uzviy tarkibiy qismi bo'lib, u kamida uch asosiy omil — ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy qadriyatlar va mafkuraviy tarbiya — ning uyg'un birligida amalga oshiriladi. Ma'naviy tarbiya masalasi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat yoshlarda, balki jamiyatning barcha a'zolarida Vatan oldidagi burchini anglash, o'z taqdirini uning kelajagi bilan bog'lash hamda oila, mahalla va mehnat jamoasi hayotidagi javobgarlikni tushunib yetish bilan bog'liq kompleks jarayondir (Sultonova, 2019:140).

Shuning uchun ham ma'naviy tarbiya masalasi jamiyatning barcha sohalarini qamrab olishi, uni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya va targ'ibot-

tashviqotning samarali usul va vositalaridan ijobiy foydalanishni taqozo qiladi. Tahlil natijalari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mazmun, shakl va talabalar ehtiyojini hisobga oluvchi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish zarurligini ko'rsatadi (Nussbaum, 2011:41).

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiya birligining mutanosibligiga erishish lozim. Aynan shundagina yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va vatanparvarlik hissini uyg'otish, milliy g'ururni shakllantirish hamda ularning ongida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash kabi oliy maqsadlarga erishish osonlashadi. Kelgusi tadqiqotlarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni baholashning aniq mezonlari va empirik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda (Weinert, 2001:60).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Castells, M. (2010). The rise of the network society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
2. Karimova, D. (2020). Yoshlar ma'naviyati va tarbiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
5. Nussbaum, M. C. (2011). Creating capabilities: The human development approach. Harvard University Press.
6. Robertson, R. (1992). Globalization: Social theory and global culture. SAGE Publications.
7. Shermuxamedov, K. (2017). Osujdeniye religioznogo fanatizma v islame. Rossiya i musulmanskij mir, (2 (296)), 146-152.
8. Shermuxamedov, K. A. (2013). Osobennosti religiozno-ekstremistskix techeniy. In Sborniki konferensiy NIS Sosiosfera (No. 39, pp. 29-32). Vedecko vydavatelske centrum Sosiosfera-CZ sro.

9. Roy, O. (2004). Globalized Islam: The search for a new ummah. Columbia University Press.
10. Smith, A. D. (1991). National identity. Penguin Books.
11. Sultonova, G. (2019). Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asoslari. Toshkent: Fan.
12. Weinert, F. E. (2001). Concept of competence: A conceptual clarification. In D. S. Rychen & L. H. Salganik (Eds.), Defining and selecting key competencies (pp. 45–65). Hogrefe & Huber.